

SOVUQ URUSH DAVRIDA AQSHNING YAQIN SHARQ MAJOROSIGA NISBATAN OLIB BORGAN SIYOSATI

Qarshiyev Ahmad¹

Mardanov Jasurbek²

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

KEYWORDS

Sovuq Urush, AQSH, Yaqin
Sharq, Geopolitika, Strategiya,
gegemonlik, Arab-Isroil.

ABSTRACT

Ushbu maqola Sovuq Urush davrida Amerika Qo'shma Shtatlarining (AQSH) Yaqin Sharq mintaqasidagi siyosatini tahlil qiladi. Tadqiqot AQSHning kommunizmning tarqalishini cheklash, neft resurslarini ta'minlash, Isroil xavfsizligini kafolatlash va mintaqadagi ittifoqchilarni qo'llab-quvvatlash kabi asosiy maqsadlarini o'rganadi. Maqolada AQSHning mintaqada o'z maqsadlariga erishish uchun qo'llagan turli xil siyosiy, iqtisodiy va harbiy vositalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, arab-isroil mojarosi va Eron inqilobi kabi mintaqaviy voqealar AQSH siyosatiga qanday ta'sir ko'rsatganligi ham tahlil etiladi. Tadqiqot xulosasida Sovuq Urush davridagi AQSH siyosatining mintaqadagi uzoq muddatli oqibatlari va bugungi kundagi Yaqin Sharq siyosiy vaziyatiga ta'siri baholanadi.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.15354977**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Kirish: Sovuq Urush davri jahon siyosatida chuqur iz qoldirgan, ikki super davlat – Amerika Qo'shma Shtatlari (AQSH) va Sovet Ittifoqi (SSSR) o'rtasidagi ideologik, siyosiy va harbiy qarama-qarshilik davri bo'ldi. Bu global kurashning ta'siri dunyoning turli mintaqalarida, jumladan, strategik jihatdan muhim bo'lgan Yaqin Sharqda ham sezildi. Neftga boy resurslari, muhim geografik o'rni va ichki siyosiy dinamikasi bilan ajralib turadigan Yaqin Sharq, Sovuq Urush davrida AQSHning tashqi siyosatida markaziy o'rinlardan birini egalladi.

AQSHning Sovuq Urush davridagi Yaqin Sharq siyosati, bir tomondan, kommunizmning mintaqaga yoyilishini cheklashga qaratilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, mintaqadagi o'z ittifoqchilarini qo'llab-quvvatlash, neft ta'minotini kafolatlash va Isroil davlatining xavfsizligini ta'minlash kabi bir qator murakkab maqsadlarni o'z ichiga olgan. Bu davrda

¹ Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi

² Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti magistri

AQSHning mintaqadagi harakatlari turli siyosiy o'yinlar, harbiy aralashuvlar, iqtisodiy yordam va diplomatik sa'y-harakatlar orqali namoyon bo'ldi.

Ushbu maqola Sovuq Urush davrida AQSHning Yaqin Sharq majorosiga nisbatan olib borgan siyosatining asosiy yo'nalishlari, maqsadlari va natijalarini tahlil qiladi. Shuningdek, bu davrdagi AQSH siyosatining mintaqaning bugungi kundagi siyosiy landshaftiga qanday ta'sir ko'rsatganligi ham ko'rib chiqiladi.

Tadqiqot Metodlari:

Ushbu tadqiqotda sifatli tadqiqot metodlari qo'llanildi. Ma'lumotlarni tahlil qilishda quyidagi usullardan foydalanildi:

- **Tarixiy tahlil:** Birlamchi va ikkilamchi manbalarni tanqidiy o'rganish, o'sha davrdagi tarixiy kontekstni hisobga olish va voqealarning xronologik ketma-ketligini aniqlash.
- **Qiyosiy tahlil:** Sovuq Urushning turli bosqichlarida AQSHning Yaqin Sharq siyosatidagi o'zgarishlarni, shuningdek, AQSHning mintaqadagi turli davlatlarga nisbatan siyosatini qiyoslash.
- **Siyosiy tahlil:** AQSH siyosatining asosiy harakatlantiruvchi kuchlari, maqsadlari va strategiyalarini aniqlash, shuningdek, ichki va tashqi omillarning ta'sirini baholash.

Natijalar. XX asr boshlarida yaqin sharq G'arb davlatlari, xususan Angiliya, Fransiya shuningdek AQSH tashqi siyosat tamoillarida muhim o'rin egalladi. Sionistik harakat va tashkilotlar o'zlarining barpo bo'lgan vaqtlaridan boshlab, u yoki bu G'arb davlatlariga suyana boshladilar. O'z navbatida G'arb davlatlari ham o'z manfaatlaridan kelib chiqqan holda sionistik harakat, keyinchalik Isroil siyosatidan foydalanib, Yaqin Sharqda o'z mavqiylarini mustahkamlashga harakat qilishdi.²

Birinchi jahon urishi yillarida, ayniqsa, 30-yillarda sionistik harakat ko'proq Angiliya bilan bo'lgan hamkorlikni mustahkamlashga intildi. Chunki bu davirda Yaqin Sharqda Angiliyaning siyosiy va iqtisodiy mavqiysi anchagina kuchli edi. Bu mintaqadagi neft boyliklari, neft maxsulotlari bilan savdo qilish asosan, Angiliya neft kompaniyasining qo'lida edi.

30-yillardan boshlab, Yaqin Sharqdagi vaziyat o'zgara boshladi. Ikkinchi jahon urushi boshlanishi vaqtida Amerikaning beshta neft kompaniyalari bu mintaqada neft qazib

² Swain A., Ojendal J., Schulz M. Security in the Middle East – Increasingly Multidimensional and Challenging, Stockholm, 2009.; Saas Eddin Ibrahim, Sects, Ethnicity and Minority Groups in the Arab World (in Arabic), – Cairo, 1994.; Hourani A.W. Minorities in the Arab World, London: Oxford University Press, 1974. Maclaurin R.D. The Political Role of Minority Groups in the Middle East. New York: Praeger, 1979.; Howeydi F. Citizens Not Protected (in Arabic), Cairo: Dar El Sherouk, 1990

olish,neft zahiralarini qidirishishlarini keng miqyosda boshlab yuborishdi. Shu vaqtdan boshlab sionistik harakat AQSH bilan o'z aloqalarini mustahkamlay boshladi.³

AQSHning sobiq prezidenti Ford 1975-yilning noyabirida so'zlagan nutqida: << Yaqin Sharqdagi axvoldan Amerikaning tashvishga tushishi siyosatdagi tanlov yo'li emas, bu hayotiy zaruriyaytdir. Yaqin Sharq strategik jihatdan muhim rayon xisoblanadi>> degan edi.

Ikkinchi jahon urishidan so'ng, AQSh Yaqin Sharq siyosatida yetakchi rol o'ynay boshladi Yaqin Sharqdagi siyosiy vaziyat globallashuvi AQSH hukumatidan bu mintaqada faol siyosat olib borishni talab qilar edi.

AQSHning ikkinchi jahon urishidan so'ng Yqain Sharqda olib borgan tashqi siyosatini mantiqan quyidagi asosiy yo'nalishlarga bo'lish mumkin.⁴

Birinchi yo'nalish: Amerika o'zining doimiy sheriklari hisoblangan Angiliya va Boshqa yevropa davlatlarini bu mintaqadan siqib chiqarish, o'z ta'sir doirasini kuchaytirish hamda bu mintaqadagi juda kata neft boyliklarini ekspulutatsiya qilishni o'z qo'lga kiritishdan iborat.

Ikkinchi yo'nalish: 40-50-yillarda arab sharida ko'tarilgan milliy ozodlik harakatini bostirish, arab davlatlarini mustaqil taraqqiyot yo'lga o'tishiga yo'l qo'ymaslik.

Uchinchi yo'nalish: Sobiq sovet davlati bu mintaqaga kirishiga to'sqinlik qilish, uni bu yerdagi ta'sir doirasini cheklashga urinish, mustaqil arab davlatlarining o'zaro harbiy siyosiy va iqtisodiy munosabatlarini o'rnatishga yo'l qo'ymaslik.

To'rtinchi yo'nalish: AQSH o'zining geosrategik tashqisiyosiy doktirinasiga binoan Yaqin Sharq mamlakatlarining tashqi siyosiy va iqtisodiy orbitasiga tortish. Shu yo'l bilan o'z mavqiyini mustahkamlash.

Beshinchi yo'nalish: SSSRning parchalanishi natijasida vujudgakelgan yangi geoplitik va geostrategic vaziyatda AQSH Yaqin Sharq muammosining hal qilishni o'z qo'lga olishiga intilish, sulh jarayonlarining borishiga ta'sir qilish.

Shuni ham takidlash joizki, AQSHning Yaqin Sharqdagi tashqi siyosati qotib qolgan bir hodisa bo'lmay bu mintaqada ro'y bergan iqtisodiy, siyosiy jarayonlarning, kuchlar nisbatining o'zgarib borishi, xalqaro munosabatlarning holatiga qarab o'zgarib bordi.

³ Benny Morris. The birth of the Palestinian refugee problem revisited. Cambridge University Press, 2004. ISBN 978-0-521-00967-6.

⁴ Nishonov M..YAQIN SHARQ;Muammo va Mojarolarning tinch yo'l bilan hal etish jarayonlari /Toshkent-2004

AQSHning yaqin Sharq muajarosiga bo'lgan munosabati avvalo, Amerika Isroil munosabatlariga bog'liq edi.

Ma'lumki, 1948-yil 14-may kuni Vashengton vaqti bilan soat 24 da Angiliyaning Falastin ustidan o'rnatgan mandati tugadi. Soat 24:00 da 01 daqiqa o'tkanda Isroil davlati dunyoga keldi. 11 daqiqa o'tkanda AQSH prezidenti Drumen yangi Isroil davlatini de-fakto tan olganini e'lon qildi. Anashu vaqtdan boshlab Amerika Isroil munosabatlari rivojlana boshlaydi. Ikki davlat o'rtasida siyosiy iqtisodiy va harbiy hamkorlik mustahkamlana bordi.⁵

Londonda chiqadigan <<Taims >> gazetasining yozishicha, 1948-yil oktabr oyida Trumen shunday degan: << Biz Isroil davlatini yetarli kata, erkin va kuchli bo'lishi to'g'risidagi g'amxo'rlik qilish majburiyatini oldik, toki Isroil o'z mustaqilligini va xalqining xavfsizligini ta'minlasin>>. AQSH prezidentining bu bayonoti Amerika Isroil munosabatlarining qay tarizda rivojlanishi strategiyasini belgilab berdi.

1952-yilning iyulida Amerika bilan Isroil o'rtasida Isroil xavfsizligini ta'minlash to'g'risida bitim imzolanadi.

1948-yildan 1967-yilgacha AQSHning Isroilga ko'rsatgan Iqtisodiy yordami qariyb 2.5 milyard dollarni tashkil etdi.

Amerikaning Isroil davlatiga ko'rsatgan harbiy yordamlariga kelsak, 1967- yilgacha AQSH g'arbiy Germaniya va Fransiya orqali Isroilga zamonaviy harbiy texnikalarni yetkazib turdi.⁶

1967- yildan boshlab esa, AQSH iSroilga qurol aslaha yetkazib beradigan amalda yagona davlat edi.

1973-yil oktabrda arab Isroil urishi va bu urushda Isroil harbiy doktirenasining amalda barbot bo'lishi Amerika Isroil munosabatlariga qattiq ta'sir qildi. Amerika hukumati Isroilga beradigan harbiy yordamini kuchaytirdi.

1945 - yil avgustida prezident G. Trumen Ikkinchi jahon urushining oxirlarida AQSh hukumati ham Yaqin Sharq va ayniqsa Falastinga o'z Falastin hududiga 100 ming yahudiylarni ko'chib kelishiga ruxsat berishni Angliya hukumatidan so'ragan edi. Ingliz hukumati Trumenning taklifini qabul qilmadi, chunki aks holda Britaniya ma'muriyati va Falastin arablari o'rtasida munosabatlar keskinlashib vaziyat yanada og'irlashardi. Lekin K.Ettli hukumati, Falastin muammosi chigallashib borayotganini sezib ingliz-amerika komissiyasining tuzilishiga ruxsat beradi. Komissiyaning vazifasi Falastindagi vaziyatni o'rganib real xulosa va tavsiya berishdan iborat edi. Komissiya tavsiyalari 1946 - yil may oyida nashr etildi va ularga binoan

⁵ Nishonov M..YAQIN SHARQ;Muammo va Mojarolarning tinch yo'l bilan hal etish jarayonlari /Toshkent

⁶ China-mission. (2023, October 25). Explanation of Vote by Ambassador Zhang Jun on the UN Security Council Draft Resolution Regarding the Palestinian-Israeli Situation. http://un.china-mission.gov.cn/eng/hyyfy/202310/t20231026_11168489.htm

mandatli tizimuzaytirilishi, yahudiy immigrantlarning Falastinga kirishi cheklantirilishi, yahudiylarga yer sotishga ta'qiqlovchi qoidani bekor qilinishi lozim edi.⁷

Angliya Amerika komissiyasining Falastin muammosi bo'yicha tavsiyalari arablarni ham sionistlarni qondirmadi. Unda London yana bir urinishni amalga oshirmoqchi bo'lib "Bevin rejası"ni ilgari surdi. "Bevin rejası"ga muvofiq arab va yahudiy aholisiga muxtoriyat berilishi, Britaniya komissariga esa milliy ozchilikni himoya qilish huquqi topshirilishi nazarga olingan edi. Ammo Angliyaning bu tashabbusinimanfaatli tomonlar qo'llab-quvvatlamadi. Angliya diplomatiyasi nochorligidan foydalanib, Falastin masalasiga AQSh hukumati yana bir kara aralashib ko'rdi.⁸

1946-yil oktyabr oyida prezident Trumen Falastinga 100 ming yahudiylarni ko'chirib keltirish masalasini London hukmron doiralari oldiga qo'ydi. Bu safar Vashington immigrantlarga bo'lajak moliyaviy yordamni o'z bo'yniga oladigan bo'ldi. Amerikaliklarning Yaqin Sharqda ta'siri kuchayishi Britaniya hukumatining rejasiga aslo kirmagan edi. Shuning uchun ham inglizlar prezident Trumenning taklifidan voz kechdi. Shu tariqa Angliya Falastin muammosini ko'rib chiqish uchun BMT Bosh Assambleyasi navbatdagi II sessiyasiga havola qilishga majbur bo'ldi. Arab mamlakatlari bu masala bo'yicha aniq va ravshan pozisiyada bo'lib, ular Falastin zaminida faqat mustaqil arab davlati barpo etilishining tarafdori edilar.⁹

1973-yilning oktyabr oyida sodir bo'lgandan keyin AQSH Isroil davlatiga 2,2 milliard dollar miqdorida harbiy qurol-yarog' yetkazish majburiyatini oladi.

To'g'ri,xar bir suveren davlatning boshqa davlatlar bilan,ularning ichki imkonoyatlari va tuzimidan qat'iy nazar,kata-kichikligiga qaramasdan davlatlararo iqtisodiy,siyosiy,xarbiy va boshqa aloqalarning o'rnatishiga xaqlidir.Biroq Amerikaning hukumati Isroilning Yaqin SHarqda arablar bilan olib borgan xarbiy ,tajavvuzkor siyosati,siyosiy to'qnashuvlari,urushlari ro'y berayotgan bir paytda Isroilning harbiy jihatdan kuchaytirgan siyosati butun Yaqin SHarqni tashvishga soldi,ayniqsa,mintaqadagi siyosiy buhronlarni keskinlashuviga Amerika ma'muriyatining Isroilni qattiq qo'llab quvvatlashi,bir vaqtning o'zida sobiq SSSR ning ham Yaqin SHarqda o'z mavqe'ini oshirishga, mustahkamlashga qaratilgan hatti-harakatlari, „sovuq urush“ning davom etayotganligi, va bu o'z navbatida sovet-amerika munosabatlarini yomonlashuviga sabab bo'ldi.¹⁰

⁷ Белоусова К. А. Политика США на Ближнем Востоке В 1958–1966 гг. Исторические науки. <<Омский научный вестник> > № 4 (79), 2009.-С.32.

⁸ Белоусова К. А. Политика США на Ближнем Востоке В 1958–1966 гг. Исторические науки. <<Омский научный вестник> > № 4 (79), 2009.-С.33.

⁹ Rubin B. The Arab States and the Palestine Conflict. Syracuse University Press. New York, 1981. – P. 18.

¹⁰ Ниязатов Ш.А. Ирано-иракский конфликт. Исторический очерк. – М. : Наука, 1989. – 176 с.

AQShning ham Yaqin SHarqda tinchlik va xavzilik o'rnatishga qaratilgan siyosati, strategik hamkori bo'lgan Isroilning xavfsizligini ta'minlash uchun Yaqin SHarqda muommosining hal etish uchun besh tamoyilni ishlab chiqdi.

Bu ta'moyilni quydagilar o'z ichiga oladi;

- 1.Yaqin SHarq hududida har bir davlatning yashash huquqiga egaligini va bu huquqni qo'shni davlatlar tomonidan tan olinish kerakligi yozadi.
- 2.Qochoqlar muommosini adolatli hal etish jarayonida arab davlatlari bilan isroilning hamkorlik qilishi.
- 3.Barcha davlatlar uchun Yaqin SHarq hududida qurollanish poygasiga chek qo'yish ma'suliyatini olishi lozimligi.
- 4.Barcha davlatlarning xalqaro suv yo'llarida erkin kema qatnovlarini yo'lga qo'yish mavjudligi.
- 5.Yaqin SHarq mintaqasidagi davlatlarning siyosiy mustaqilligi va hududiy yaxlitligini xurmat qilish,tan olish va Ierusalimda joylashgan muqaddas yerlardagi uchta dunyoviy dinlarning o'ziga xos manfaatlarini tan olishi.¹¹

AQSH davlati rahbarining olg'a surgan ushbu hujjat mazmuniga ko'ra Arab-Isroil tomonlari uchun ham mos kelishi ,Yaqin SHarqda sodir bo'layotgan mojarolarni hal etishda bir asos bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.Ammo bub hujjatga ko'ra Isroil tomonidan bosib olingan arablarning yerlaridan o'zining qurolli kuchlarini olib chiqish haqida hech narsa berilmagan.

AQSh davlati bu hududlardagi mojarolarda bevosita ishtirok etmasada,bu mintaqadagi siyosatdan ustalik bilan foydalandi. Isroil bilan o'zaro hamkorlik mustahkamlandi. 1958-yildan 1966-yilgacha bo'lgan davr AQShning Yaqin Sharq mintaqasidagi siyosatini o'rganishda kompleks yondashuv nuqtai nazaridan eng kam o'rganilgan davr hisoblanadi.¹² Bu davr arab-isroil mojarosiga nisbatan xotirjamlik davri edi. Biroq, Isroil va arab davlatlari o'rtasidagi beqaror munosabatlar Yaqin Sharq mintaqasidagi butun siyosiy muhitda o'z izini qoldirdi. Bu davr tarixchisi uchun eng qiziq fakt AQShning Iroq inqilobiga aralashmaganligidir, vaholanki, 1958-yil inqilobidan oldin ham AQShning Iroqqa e'tibori juda mo'tadil bo'lganini ta'kidlash kerak. Amerikalik tarixchi Rubinning fikricha, inqilobdan oldin Iroq-Amerika munosabatlariga ikki omil ta'sir qilgan: Falastin muammosi va yangi mintaqaviy xavfsizlik tizimini yaratish muammosi. 1958 yilda Iroqdagi inqilobdan so'ng

¹¹ Nishonov M..YAQIN SHARQ;Muammo va Mojarolarning tinch yo'l bilan hal etish jarayonlari /Toshkent-2004

¹² Белоусова К. А. Политика США на Ближнем Востоке в 1958–1966 гг. Исторические науки. <<Омский научный вестник>> № 4 (79), 2009.-С.34.

darhol AQSh harakatlarida noz-karashma sifatida tavsiflanishi mumkin bo'lgan yangi taktikalar kuzatila boshlandi. Buning dalili sifatida ham AQSh, ham Bag'dod paktiga a'zo davlatlar tomonidan Iroqning tan olinishi, shuningdek, maxsus vakil Merfining Bag'dodga safari ham bor.

1958-yilda Iroqda va umuman Yaqin Sharqda sodir bo'lgan voqealar AQSh va Isroilni yaqinlashtirdi. Iroq inqilobidan so'ng darhol Ben-Gurion Eyzenxauerga maxfiy maktub yo'llab, unda Yaqin Sharqda Isroil va G'arbga tahdid borligini aytdi. Sharqiy va Qo'shma Shtatlarni Birlashgan Arab Respublikalariga qarshi qat'iy harakat qilishga taklif qildi. Maktubda G'arb davlatlarining ikkilanuvchan va qat'iyatsiz siyosati tahlil qilingan edi. Ben-Gurion AQSh hukumatidan "Isroilga nisbatan siyosatini mazmunan ham, arablarning har qanday tajovuzini to'xtata oladigan aniq deklaratsiya shaklida ham aniq bayon etishni" so'radi, va agar Eyzenxauerning javobi rasmiy uslubda bo'lsa, u holda xatda haqiqiy javob bo'lgan Dalles Isroilning nuqtai nazari Davlat departamenti nuqtai nazariga to'g'ri kelishini ko'rsatdi. Dalles Isroil bilan umumiy siyosiy muammolar va Isroilga Amerika qurollarini yetkazib berishning texnik masalalari bo'yicha darhol diplomatik darajada muzokarlarni boshlashni taklif qildi.¹³ 1958-yil iyul oyining oxiri-avgust oyining boshida Vashingtonda muzokaralar bo'lib o'tdi, unda Dalles vakili bo'lgan amerikaliklar isroilliklarni "ular o'z holiga tashlab qo'yilmaydi" va Qo'shma Shtatlar o'z xohishiga ko'ra kelishiga ishontirdi.¹⁴ Isroil hukumati 1960-yil boshida, 1959-yilning ikkinchi yarmida ma'lum bir sukunatdan so'ng, yana Yaqin Sharq mintaqasida keskinlik yo'nalishini belgilaganligi, avvalambor, urush taktikasining o'zgarishi bilan izohlanadi. G'arb davlatlari arab davlatlari bilan munosabatlarida agar ilgari G'arb davlatlari, birinchi navbatda AQSH va Angliya Yaqin Sharqda kuchli pozitsiyadan turib, Isroildagi reaksion doiralardan foydalanib, bunday siyosatni amalga oshirish uchun ochiqdan-ochiq siyosat olib borgan bo'lsalar, 1959-yildan boshlab ular boshqa, ancha moslashuvchan siyosatdan foydalana boshladilar. Arab davlatlari bilan munosabatlardagi usullar bu, uning ichida o'z navbatida, Qo'shma Shtatlarni to'xtatuvchi vositani ta'minlashga majbur qildi. Isroilning tajovuzkor niyatlariga ta'siri hukmron doiralar va Isroil bilan aloqalarni biroz cheklashga olib keldi. Qo'shma Shtatlar Isroil va Birlashgan Arab respublikalari o'rtasida jiddiy harbiy to'qnashuvdan qo'rqdi, bu Isroil hukmron doiralarning ekstremistik siyosati sabab bo'lishi mumkin. Yangi to'qnashuv Qo'shma Shtatlarni Yaqin Sharq muammolari bo'yicha aniqroq gapirishga majbur qilishi mumkin, bu esa ularning arablar va Isroil o'rtasida manyovr qilish siyosatini davom ettirishni qiyinlashtiradi. Bu, o'z navbatida, inqirozga olib keladi. Arab mamlakatlariga nisbatan yangi taktikalar. Shu munosabat bilan Amerika Qo'shma Shtatlari Isroilni ushlab turish choralarini. Muntazam matbuot anjumanida so'zga chiqqan Eyzenxauer Qo'shma Shtatlar bundan buyon

¹³ Ближневосточный конфликт 1957-1967. Из документов архива внешней политики РФ / отв. ред. В.В. Наумкин. – М., 2003. – Т.2. – Док. 96.

¹⁴ Кременюк В.А. Политика США в развивающихся странах. Проблемы конфликтных ситуаций. 1945 – 1976. -М., 1977.

Isroilga qurol etkazib bermasligi haqida bayonot berdi. Biroq, Ben-Gurionning 1960-yil mart oyida AQShga qilgan safari munosabati bilan shuni xulosa qilish mumkinki, joriy yilning fevral-mart oylarida Yaqin Sharqdagi keskinlikning kuchayishi nafaqat Isroil va Birlashgan Arab respublikalari o'rtasidagi qarama-qarshiliklardan kelib chiqqan, balki shuningdek, Isroilning Yaqin Sharqdagi mavqeini mustahkamlash va AQSh bilan aloqalar mustahkamlash uchun oldindan o'ylangan harakati edi.¹⁵ 1961-yilda prezidentlikka kelgan Jon Kennedi Eyzenxauer ma'muriyatining yo'nalishini tanqid qildi. Kennedining Eyzenxauerga hujumi asosan ikkita ayblovga asoslangan edi: ma'muriyat rivojlanayotgan dunyoning haqiqiy manfaatlarini tushuna olmadi; Eyzenxauer nokommunistik arab millatchiligini mustahkamlash imkoniyatidan foydalanmadi. Ikkinchidan, u dastur uchun Respublika rahbariyatini tanqid qildi. Bu esa harbiy xarajatlarni qisqartirish, bu Qo'shma Shtatlarni "Uchinchi dunyo" ning "kulrang hududlarida" kichik urushlarga qarshi kurashishga tayyor emasligiga olib keldi.¹⁶

Kennedi ba'zi Osiyo va Afrika rahbarlarining "kommunistik eksperimentni o'zlarining iqtisodiy rivojlanishi uchun namuna sifatida ko'rish" tendentsiyasidan qo'rqib, arablarning roziligini qozonish uchun yo'nalishini o'zgartirdi. "Qo'llab-quvvatlash" siyosati ortib borayotgan umidlar inqilobi" va ayniqsa, avvalgi ma'muriyat o'z ittifoqchilari deb hisoblamagan davlatlar bilan "sovuq urush" dan uzoqlashishga urinish edi. Bu mamlakatlarda muqobil yondashuv hukmron bo'lishidan qo'rqib, Kennedi umidlarini G'arb tomonidan boshqariladigan kapitalistik evolyutsiyaga bog'ladi. 1961-yil iyun oyida Kennedi Falastin masalasi bo'yicha rejani ilgari surdi. Isroil ham, arab davlatlari ham AQShning yangi rejasiga salbiy munosabat bildirishdi. Amerikaliklar avvaliga qochqinlar muammosini hal qilishni, keyin esa BMTning yarashuv komissiyasi orqali Isroil va arab davlatlari o'rtasida tinchlik muzokaralarini o'tkazishni taklif qilishdi. Ularning rejasiga ko'ra, Isroil arab qochqinlarining bir qismini vataniga qaytarishi va ularga qoldirgan mol-mulki uchun tovon to'lashi, keyin esa tinchlik muzokaralarini boshlashi kerak edi. 1962-yil aprel oyida Qo'shma Shtatlar arab mamlakatlariga falastinlik qochqinlarni integratsiyalashuvini nazarda tutuvchi Jonson rejasini tatbiq etishga harakat qildi. Ushbu reja ikkita maqsadni ko'zlagan edi - Isroilni mustahkamlash va arab davlatlarining ichki ishlariga aralashishni kuchaytirish, ularga iqtisodiy "yordam" berish. Arab davlatlari ikkala rejani ham rad etdi. 1963-yilning kuzida Kennedi jamoasini almashtirgan L.Jonson ma'muriyati AQShning Yaqin Sharqdagi an'anaviy pozitsiyasiga, boshqacha aytganda, Isroil tarafdorlariga amal qildi. Jonson prezidentligi davrida Kennedi mafkurachilarining xulosalariga ishonishga moyil bo'ladi.¹⁷

Kennedining xohishiga ko'ra, Isroil rasmiylari arab-isroil mojarosini hal qilishda "kuchli pozitsiyadan" kamroq harakat qila boshladilar. Isroilning bu siyosati, u o'ziga katta zarar yetkazmasdan, AQShning arab mamlakatlariga kirib borishini murakkablashtirgan to'siqlarni

¹⁵ США и региональные конфликты. - М., 1990.

¹⁶ США и региональные конфликты. - М., 1990.

¹⁷ Хазанов А.Н., Ханди Г. Политика СССР в третьем мире (Азия и Африка) в годы холодной войны. М., 1997.

bartaraf etishga harakat qilayotganini ko'rsatdi.¹⁸ 1964-yil yanvar oyida Qohirada bo'lib o'tgan arab davlatlari rahbarlarining konferentsiyasi arab mamlakatlari o'rtasidagi munosabatlarning ma'lum darajada yaxshilanishiga turtki bo'ldi. Davlat departamenti matbuot kotibi

Aleksis Jonsonning 21-yanvar kuni qilgan nutqida qayd etilganidek, Qohira konferentsiyasi natijalari haqiqatdan ham ahamiyatli bo'lib, ulardan norozi bo'lgan Qo'shma Shtatlar munosabati bilan baholanadi. Uning so'zlariga ko'ra, Qo'shma Shtatlar Yaqin Sharqdagi biron bir davlatning mintaqadagi boshqa davlatga qurolli hujumiga yo'l qo'ymaydi.¹⁹ 1960-yillarning o'rtalarida, AQShning rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan siyosatida yangi tendentsiya paydo bo'ldi: rivojlanayotgan mamlakatlar ishlariga o'zining harbiy aralashuviga yondashuv juda ehtiyotkor bo'ldi. Biroq, mahalliy g'arbparast rejimlarga urg'u saqlanib qoldi. Sh.Niyozmatov shunday yozadi: "AQSh tutgan yo'nalish Angliyaning ulardan oldingi yo'nalishiga deyarli to'g'ri keldi va undan maqsad mahalliy monarxiya, konservativ va reaksion rejimlarga tayangan holda G'arb manfaatlarini ta'minlash edi. Shunday qilib, kelajakda harbiy mintaqadagi milliy ozodlik va G'arbga qarshi harakatning kuchayishini ushlab turishga qodir bo'lgan siyosiy blok"ni birlashtirish mumkin bo'ladi.

Xulosa

Sovuq Urush davri AQSHning Yaqin Sharq siyosatida murakkab va ko'p qirrali davr bo'ldi. Kommunizmning tarqalishini cheklash, neft resurslariga bo'lgan ehtiyojni qondirish, Isroilning xavfsizligini ta'minlash va mintaqadagi ittifoqchilarni qo'llab-quvvatlash kabi bir qator strategik maqsadlar AQSHning mintaqadagi harakatlarini belgilab berdi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, AQSH o'z maqsadlariga erishish uchun turli xil vositalardan, jumladan, harbiy yordam, iqtisodiy ko'mak, diplomatik aloqalar va ba'zi hollarda yashirin operatsiyalardan faol foydalangan. Mintaqadagi arab-isroil mojarosi, Eron inqilobi va Sovet Ittifoqining ta'siri kabi omillar AQSH siyosatining yo'nalishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Sovuq Urush davrida AQSHning Yaqin Sharqdagi siyosati ba'zi muvaffaqiyatlarga erishgan bo'lsa-da, mintaqada uzoq muddatli beqarorlik va ziddiyatlar zaminini ham yaratdi. AQSHning ayrim harakatlari mahalliy aholining noroziligiga sabab bo'ldi va radikal oqimlarning kuchayishiga olib keldi.

Sovuq Urushning yakunlanishi AQSHning Yaqin Sharq siyosatida yangi davrni boshlab berdi, ammo o'sha davrda shakllangan muammolar va ziddiyatlar bugungi kunda ham mintaqada o'zining ta'sirini saqlab qolmoqda. Ushbu tadqiqot Sovuq Urush davridagi AQSH siyosatining

¹⁸ Лаффин Дж. Израильская армия в конфликтах на Ближнем Востоке. 1948-1973. -М., 2002.

¹⁹ Кременюк В.А. Политика США в развивающихся странах. Проблемы конфликтных ситуаций. 1945 – 1976. -М., 1977.

Yaqin Sharqning hozirgi siyosiy vaziyatiga qanday ta'sir ko'rsatganligini tushunish uchun muhim ahamiyatga ega. Kelgusidagi tadqiqotlar ushbu davrning turli jihatlarini yanada chuqur o'rganishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Benny Morris. The birth of the Palestinian refugee problem revisited. Cambridge University Press, 2004. ISBN 978-0-521-00967-6.
2. Белоусова К. А. Политика США на Ближнем Востоке В 1958–1966 гг. Исторические науки. <<Омский научный вестник> > № 4 (79), 2009.-С.33.
- Rubin B. The Arab States and the Palestine Conflict. Syracuse University Press. New York, 1981. – P. 18.
3. Ближневосточный конфликт 1957-1967. Из документов архива внешней политики РФ / отв. ред. В.В. Наумкин. – М., 2003. – Т.2. – Док. 96.
4. Кременюк В.А. Политика США в развивающихся странах. Проблемы конфликтных ситуаций. 1945 – 1976. -М., 1977.
5. Nishonov M..YAQIN SHARQ;Muammo va Mojarolarning tinch yo'l bilan hal etish jarayonlari /Toshkent-2004
6. Ниязматов Ш.А. Ирано-иракский конфликт. Исторический очерк. – М. : Наука, 1989. – 176 с.
7. China-mission. (2023, October 25). Explanation of Vote by Ambassador Zhang Jun on the UN Security Council Draft Resolution Regarding the Palestinian-Israeli Situation.http://un.chinamission.gov.cn/eng/hyyfy/202310/t20231026_11168489.htm.
8. Swain A., Ojendal J., Schulz M. Security in the Middle East – Increasingly Multidimensional and Challenging, Stockholm, 2009.; Saas Eddin Ibrahim, Sects, Ethnicity and Minority Groups in the Arab World (in Arabic), – Cairo, 1994.; Hourani A.W. Minorities in the Arab World, London: Oxford University Press, 1974. Maclaurin R.D. The Political Role of Minority Groups in the Middle East. New York: Praeger, 1979.; Howeidy F. Citizens Not Protected (in Arabic), Cairo: Dar El Sherouk, 1990
9. США и региональные конфликты. - М., 1990.